

ETNOS VA MILLAT TUSHUNCHALARINING QIYOSIY TAHLILI

Mambetiyarova Venera Reyimbaevna

QDU Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

QDU sirtqi talim yo'nalishi Psixologiya guruhi

2- kurs talabasi Musaeva Gulnur

Annotatsiya: Mazkur maqolada “millat” “etnos” tushunchalarining paydo bo'lishi, mazmuni, shakllanishi, rivojlanishiga oid zamonaviy konsepsiyalar, nazariyalar, “millat” tushunchasi tuzilmasi va ularning namoyon bo'lish shakllari, farqli jihatlari va dialektik aloqadorlik masalalari, bu borada xorijiy va milliy doiradagi izlanishlar ilmiy o'rganilgan, tadqiq etilgan ilmiy fikrlar tizimlashtirilib, bu borada tadqiqot doirasida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: etnos, millat, etnomadaniy jarayonlar, primordialistik yondashuv, insturamentalistik yondashuv, konstruktivistik yondashuv

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida etnomadaniy jarayonlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi, global olamda kechayotgan turli ijtimoiy-siyosiy muammolar zamirida millat, milliy mentalitet, o'zlikni anglash masalalari dolzarb vazifa hisoblanadi. Etnomadaniy jarayonlar, bugungi xalqlar etnomadaniyatida kechayotgan evolyutsion jarayondagi milliy o'ziga xoslikka qarama-qarshi bo'lgan “global zamonaviylashuv” esa milliy ma'naviyatni parokanda bo'lishiga zamin yaratadi. Shu o'rinda, milliy ma'naviyatning tashqi ta'sirlar orqali yemirilishi, nafaqat ma'naviyatni, balki millatni millat sifatida yo'qolish xavfini vujudga keltiradi. Zero, etnomadaniyatni asrash orqali milliy mentalitetini boyitish evaziga millatni asrab qolish mumkin.

Bugungi kunda biz yashayotgan zamonda turli-tuman xalqlar o'z milliy-etnik madaniyati va an'analari bilan boshqalardan ajralib turadi. O'z navbatida, har bir etnik birlik o'ziga xos shakllanish va etnik rivojlanish tarixiga ega. Tadqiqotchi N.Konrad ta'biri bilan aytganda: “...har bir xalq, son jihatidan katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, takrorlanmas xususiyatlarni o'zida mujassam etgan, o'ziga xos tarixga ega. Hatto, aytish mumkinki, insoniyat tarixi ana shunday kichik xalqlar tarixidan ham ibtido oladi” [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Etnomadaniyatda “etnos” va “millat” tushunchalarining ilmiy va metodologik tahliliga tadqiqotchilar tomonidan alohida e'tibor qaratiladi. Bu borada, ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtayi nazaridan etnos, etnik birlik muammosi doirasida primordialistik, insturamentalistik va konstruktivistik yondashishlar orqali tahlil etilgan.

Primordialistik yondashuv – ushbu konsepsiyada “etnos” va “millat” tushunchalarining substansional va essenzialistik yoki tarixiy ildizlarini tahlil qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Etnomilliy konsepsiyalar orasidagi primordializm (ingliz. primordial – boshlang‘ich, dastlabki, azaliy) paradigmasida etnos va millat identifikatsiyasi tabiat yoki jamiyatda obyektiv asosga ega bo‘lgan aniq fenomenlar tahliliga alohida e‘tibor qaratiladi. Primordializm oqimi ikki yo‘nalishga bo‘linadi: tarixiy-evolyutsion va sotsiobiologik yo‘nalish. Bunda etnos (yunon. ethos – guruh, qabila, xalq) ijtimoiy-tarixiy va madaniy jarayonlar natijasida shakllangan ijtimoiy guruhning o‘ziga xos turi yoki urug‘, qabila, elat va millat shakllarida namoyon bo‘luvchi fenomen sifatida talqin qilinadi. Tarixiy-evolyutsion yo‘nalish rivojlanishida akademik U.Bromley olib borgan tadqiqotlari orqali “etnik birlik” tushunchasi, etnik birlikning davrlarga bo‘linishi, etnik alomatlar va boshqa shu kabi masalalar borasida qator yangi ilmiy-falsafiy qarashlarni ilgari suradi [2].

Shuningdek, bu nazariya etnik ziddiyatlarni tabiat qonuniyati sifatida baholaydi. Bu mashhur ingliz olimi Tomas Gobbsning “inson – insonning bo‘risi” tamoyilidan kelib chiqadigan “bitmas-tuganmas” mojarolar va ular orasidagi raqobatni anglatuvchi omillarni bildiradi. Tomas Gobbs primordializm raqobatbardosh dunyoda etnik o‘ziga xoslik masalasi o‘z naslini davom ettirish uchun doimiy bahs va munozara markazida bo‘ldi, degan asosiy xulosani ilgari suradi.

Instrumentalistik yondashuv – tarafdorlari 1970-yillar o‘rtalarida G‘arb etnologiyasi doiralarida vujudga kelgan, etnosga hokimiyat va mavqe uchun kurashda qo‘llaniladigan vosita sifatida, har bir etnosga xoslik ular orasida raqobat va kurashning keskinlashuvi omillari sifatida qarashadi. Mazkur yondashuvning tarafdorlari D.Govorich, Dj.Rotshild, Dj.Naujel va boshqalar. Instrumentalizm nuqtayi nazaridan, etnoslar umumiy qiziqishlar asosida birlashgan guruh, siyosiy jabhada umumiy maqsadlarga erishish vositasidir. Unga muvofiq, ijtimoiy- siyosiy jabhada ustuvorlikka jamoaviy intilish vositasi, turli ko‘rinishdagi etnik mobilizatsiya esa ijtimoiy xatti-harakatlarni belgilovchi, uyushtiruvchi, u yoki bu moddiy omillarni qo‘lga kirituvchi, yordam beruvchi kuch sifatida talqin qilinadi [3].

Konstruktivistik yondashuv – etnik muammolarni o‘rganishdagi uch asosiy nazariy yondashuvlardan yana biri – konstruktivizm hisoblanadi. Konstruktivizm etnik o‘zlikni anglashni asosan ijtimoiy omil bilan bog‘liq ekanligini talqin etadi. Etnik o‘ziga xoslik gendan keluvchi muqarrar va o‘zgarimas emas, balki bir necha sabablarga ko‘ra (urushlar, mustamlaka, globallashtiruv, integratsiyalashuv, migratsiya kabilar) o‘zgaruvchan hisoblanadi. Konstruktivizmning bir ko‘rinishi bo‘lgan institutsionalizm etnik muammolar kelib chiqishini davlat institutlarining qanchalik sog‘lom va demokratik, resurslarning teng va adolatli taqsimoti amalga oshirilishi bilan bog‘lashadi.

Konstruktiv yondashish tarafdorlari R.Bart, R.Jekson, B.Anderson, R.Burd'ye, Y.Gellner hisoblanadi. Mazkur nazariya etnik munosabatlarda nafaqat etnos, insonlar jamoasi, balki e'tiqodi, tabiiy va madaniy jihatdan biri-biriga bog'liq ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin etiladi. Unda munosabatlar barqarorligini ta'minlash ko'proq ziyolilar, yozuvchi-faylasuflarga, ya'ni ijtimoiy-madaniy omillarga bog'liqligi ta'kidlanadi [4].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Etnos atamasi juda keng va tor ma'noda ham ishlatiladi: O'zbekiston xalqi, Amerika xalqi shular jumlasidan. Kichik kishilar guruhiga nisbatan ham "xalq" iborasi qo'llaniladi. Etnologiya fanida etnosni belgilovchi bir qancha mezonlar mavjud: hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyliigi, ong, etnosning uyushqoqligi muayyan davlat doirasida bo'lishi, o'z etnik nomi (etnonimi)ga ega bo'lishi, diniy e'tiqodning umumiyliigi va boshqa shu kabilardir.

O'zining metodologik yondashuvi va tadqiqot aspektidan kelib chiqib, zamonaviy fanda etnos bilan bog'liq turli qarash va maktablar shakllangan. Bular qatoriga:

- Mashhur turkiyshunos olim L.Gumilevning passionar nazariyasi;
- Nazariyotchi rus akademigi U.Bromleyning dialistik konsepsiyasi;
- N.Chebaksarov va S.Arutyunovlarning etnos bilan bog'liq informatsion konsepsiyasi;
- G.Markova va V.Rimenovalarning tizimli-statistik yoki komponentli nazariyasi;

Demak, aytish mumkinki, hozirgi kunga qadar "etnos" tushunchasi ta'rifi bo'yicha ham fanda yagona fikr mavjud emas. XX asr 20-yillarida rus etnografi S.Shirokogorov (1887–1939) tomonidan etnos atamasiga ilk bora quyidagicha ta'rif berilgan: "etnos – bir tilda so'zlashuvchi, kelib chiqishi bir ekanligini tan oluvchi, urf-odatlar majmuasi hamda umumiy turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhi" [5].

XX asr 60-70 yillariga kelib, etnos nazariyasiga oid qarashlarda yangi bosqich boshlangan. Sobiq Ittifoq nazariyotchilaridan R.Kushner (Knishev), S.Tokarev, N.Chebaksarov, U.Bromley, V.Kozlovlar etnosga o'ziga xos ta'rif berishgan. Ayniqsa, bu borada U.Bromleyning fikrlari e'tiborga molik. Uning "Etnos va etnografiya", "Etnografiyaning zamonaviy muammolari", "etnos nazariyasidan ocherklar" kabi asarlarida etnos nazariyasiga doir mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Natijada, nazariy etnografiyada "Bromley konsepsiyasi" yoki "etnosning dialistik nazariyasi" deb ataluvchi konsepsiya paydo bo'ldi. Bu konsepsiya uning 1983-yilda nashr etilgan "Очерки теории этноса" ("Etnos nazariyasidan ocherklar") nomli monografiyasida to'laligicha o'z ifodasini topgan [6].

U.Bromley keng ma'nodagi etnos yoki etnoijtimoiy tuzilmaga ta'rif beradi: "Etnik ko'rinishning ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan mustahkam aloqadorligini alohida

ta'kidlash kerak, qaysiki, ular o'zaro bog'liq. Etnos agar yagona (umumiy) bir davlat tarkibida mavjud bo'lsa, ushbu o'zaro aloqadorlik yanada muhim. Bu holatda tarkib topayotgan o'ziga xos tuzilma nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy umumiylikka ham ega bo'ladi"[6]. Umuman olganda, U.Bromleyning fikricha, etnos – aniq bir hudud, til, kelib chiqishi, madaniyat umumiyligi, o'z-o'zini etnik anglash va o'z etnik nomi (etnonimi)ga hamda o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhi.

E'tiborli tomoni shundaki, U.Bromley "etnos" tushunchasini bir vaqtning o'zida ham tor ma'noda, ham keng ma'noda tushunmoq kerak, degan fikrni o'rta tashladi. Olim tor ma'nodagi "etnos" tushunchasini ayni vaqtda, "etnikos", keng ma'nodagi "etnos" tushunchasini esa "etnoijtimoiy tuzilma" deb ataydi. Uning fikricha, tor ma'nodagi etnos yoki etnikos – o'ziga xos barqaror madaniyat (xususan, til), psixika hamda etnik o'z-o'zini anglash va o'z etnik nomiga (etnonimiga) ega bo'lgan kishilarning tarixan tarkib torgan guruhidir. Keng ma'nodagi etnosga yoki etnoijtimoiy tuzilmaga nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy umumiylik ham kiradi. Bunga misol tarzida o'zbek xalqini oladigan bo'lsak, mazkur nazariya tarafdorlarining qarashlariga ko'ra, butun Yer sharida yashovchi o'zbeklar etnikos bo'lsa, O'zbekiston hududida yashovchi o'zbeklar esa etnoijtimoiy organizm hisoblanadi.

Etnos shakllanishidagi eng muhim alomatlardan biri mazkur etnosga mansublikni idrok etish, ya'ni etnik o'zlikni anglash hissi ham kiradi. Etnik o'zlikni anglash hissi mazkur xalqqa tegishli fuqarolar tomonidan o'zlarining kelib chiqish tarixi va tarixiy taqdirleri umumiyligi to'g'risidagi tasavvurlar asosida shakllanadi. Hatto, misol uchun, ma'lum bir qism o'zbeklar, ruslar, yahudiyalar, armanlar, polyaklar turli mamlakatlarda yashasalar-da, o'zlarini tarixiy vatanlaridagi etnik jamoalari bilan bog'laydilar. Bundan tashqari, har bir etnik jamoaga mansub kishilar o'zlarini boshqa guruhga mansub odamlardan "biz" va "ular" degan antitezis asosida ajratib talqin qiladilar [7].

Muhokama. Ilmiy adabiyotlarda "etnos" tushunchasi va hodisasiga o'ttizga yaqin ta'riflar uchrasa-da, ularda yaqinlik, mushtaraklik mavjud. Ya'ni, "Etnos – bir tilda so'zlashuvchi, o'zlarining bir xil kelib chiqishi va mushtarak shakllanish jarayonini tan oluvchi, boshqa xalqlardan farq etuvchi qator urf-odat va an'analarga ega bo'lgan kishilar guruhi" [6].

Akademik A.Asqarov fikricha, etnos – biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyotida ma'lum bir bosqichning hosilasidir. Etnos so'zining shakllanish jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangidan yangi etnik qatlamlar qo'shib boradi [8].

Etnos nazariyasi borasida mashhur turkiyshunos olim L.Gumilev, etnos ijtimoiy hosila emas, balki biogeografik hosiladir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois, undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi, – deb [9] aytgan. Shuningdek, biologik

primordializmning varianti sifatida “etnik maydon” gerotezasini (passionar nazariya)ni ilgari surdi. Uning fikricha, “Etnos

– kishilarning tabiiy ravishda shakllangan uyushmasi bo‘lib, a‘zolari o‘ziga xos xulq-atvor stereotiplariga ega. Ular o‘zini analogik uyushmalarga qarama-qarshi qo‘yadilar, bu qarama- qarshilik umumiy komplimentarlik – etnoguruhlardagi o‘zaro hurmat-e‘tibor hissi bilan belgilanadi”[10]. Komplimentarlik asosida esa “etnik maydon” yotadi. L.Gumelevning ta‘kidlashicha, etnoslar yaxlit tizim sifatida mavjud bo‘lib, etnik tizim – superetnoslar tarkibiga kiradi, o‘z o‘rnida etnosning elementlari – subetnoslar, konvixsiyalar, konsorslardan iborat. Etnoslarning tabiiy-biologik xususiyati ular bioorganik olamning asosiy tarkibiy qismi, ma‘lum bir geografik va iqlim sharoitlari hosilasi ekanligi bilan belgilanadi. L.Gumilev bu tezisni asosiy postulat sifatida o‘zining biologik konsepsiya asosiga qo‘yadi.

Etnos, birinchi navbatda, biosferaning fenomeni. “Biz, – deb yozadi u, – qay darajada ijtimoiy taraqqiyot sohibi bo‘lsak, shu darajada Yer biosferasining natijasimiz”[11].

Demak, yuqorida keltirilgan ta‘riflardan shu xulosa keladiki, etnos na biologik, na ijtimoiy hodisa ekanligi bahsli jarayon bo‘lib, “etnos” tushunchasi ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan to‘liq tadqiq etilmagan.

Natijalar. Millat shakllanishining ijtimoiy-siyosiy mohiyatini anglash, tadqiq qilish uchun ularning substansional asosi bo‘lgan “etnos” va “millat” tushunchalarini, ularning genezisini o‘rganish lozim. “Etnos” tushunchasi yunon tilidan olingan bo‘lib, uning etimologik ma‘nosi xalq, qabila, to‘da, kishilar guruhi, degan ma‘nolarni anglatadi.

Hozirda ushbu termini nafaqat etnologlar, balki faylasuflar, tarixchilar, siyosatshunoslar, sotsiologlar, psixologlar, hatto iqtisodchilar ham doimiy ravishda keng qo‘llamoqdalar, mazkur muammo bilan bog‘liq o‘zlarining turli-tuman qarashlarini bayon qilmoqdalar [12].

Siyosatshunos olim N.Mamanazarov yozganidek, “demos” kishilar guruhining muayyan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol qatnashuvi qismini anglatasa, “etnos” termini muayyan joy, ya‘ni hududda yashovchi xalqning lokal guruhini anglatadi. Hozirgi paytda “etnos” termini faqatgina ilmiy doira va ilmiy adabiyotlardagina qo‘llansa, “xalq” termini kundalik hayotning barcha ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy va ma‘naviy jabhalarida faol qo‘llaniladi. Shu jihatdan ham “etnos” va “xalq” tushunchalari ma‘lum ma‘noda bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ammo mazmun va mohiyat jihatidan bir-biridan farq qiladi [13].

Rossiyalik olim R.Sorokin “millat” ijtimoiy borliq sifatida mavjud emas [14], degan fikrni ilgari sursa, boshqa bir rus olimi V.Tishkov “Millat – siyosiy shior va safarbar qiluvchi vosita, ammo u ilmiy tushuncha emas. Uning yashashga huquqi yo‘q va u ilmiy tildan olib tashlanishi kerak” [15], deb hisoblaydi. Millat uzoq davom etgan

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o‘zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho‘qqisi, o‘ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli hisoblanadi. Millat termini qadimda va o‘rta asrlarda asosan kelib chiqishi bir bo‘lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylik kasb etgan ma‘lum guruh kishilarga nisbatan qo‘llanilgan. Sharqda “millat” (arab: xalq) tushunchasi VIII asrda, arab xalifaligi tomonidan Movarounnahrning zabt etilishi davridan boshlab kirib kelgan. Ushbu tushunchalar negizida “mil” iborasi yotadi. “Mil” tushunchasi arab tilida “o‘zak”, “tub mohiyat”, “negiz”, degan ma‘nolarni ifodalaydi. “Millat” tushunchasi esa keng miqyosda qo‘llanilib: 1) din, diniy jamoa;

2) ummat, ma‘lum dinga e‘tiqod qiluvchilar jamoasi; 3) xalq, millat kabi ma‘nolarni anglatadi [16]. Yuqoridagi fikrga asos sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. Milla – din, diniy jamoa. Qur‘onda Milla istilohi bilan majusiylik (18:20/19; 14:13/160), yahudiylik va xristianlik (2:120/114), Ibrohim (a.s)ning haqiqiy dini, uni yahudiylar xristianlar va majusiy- arabiylar tomonidan buzilganligi (6:161/162; 2:128/122; 130/124; 3:95/89; 4:125/124 va boshqalar) Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan tiklangani va u Zotning izdoshlarini birlashtirganini anglatadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan diniy belgilarga ko‘ra birlashgan kishilar uyushmasini anglatgan (q.Umma), Qur‘ondagi istilohlar qatorida turadi. Milla istilohining ikki ma‘noda (din – uyushma ekani Muhammad (s.a.v) zamondoshlari bo‘lgan shoirlar ijodida, o‘rta asr musulmon adabiyotida (mas., Tabariy, Ibn Xaldun), o‘rta asr hukmdorlari unvonlarida (mas., ilk G‘aznaviylarda) ko‘zga tashlanadi. Istiloh “yo‘nalish”, “tariqat” ma‘nosida ham ishlatilgan (mas., al-Hallojda). Usmoniylar saltanatida XV asr 2-yarmidan Milla istilohi bilan (millat shaklda) davlat tomonidan rasman e‘tirof etilgan va cheklangan muhtoriyat huquqini olgan diniy jamoalar (grek-pravoslav, arman-grigorian va yahudiylar jamoasi)ni anglatgan. Yangi davrda Milla Istilohi avvalgi, Qur‘ondagi ma‘nosi bilan birga “xalq”, “millat” kabi ma‘noga ega bo‘ldi.[17] Umma (arab., o‘zbek tilida uning “ummat” shakli tarqalgan, ma‘lum dinga e‘tiqod qiluvchilar jamoasi) – Madinada Muhammad (s.a.v.) izlaridan borgan va islom dinini qabul qilgan kishilar jamoasi. Muhammad ummati deyilganda, ana shu jamoa a‘zolari tushuniladi. Keyinchalik ummat umuman musulmonlar mazmunida talqin etilgan [18]. Yuqorida keltirilgan nazariya va qarashlar har bir davr uchun o‘ziga hos ahamiyat kasb etgan ilmiy asoslangan qarashlar bo‘lib, bu keying tadqiqotlar uchun muhim amaliy dastur bo‘ladi. Bu esa tadqiqotchilimlar uchun ilm-fanda yangilik yaratishda poydevor vazifasini bajaradi. Millat va etnos tushunchalariga oid qarash, tahlillar, keyingi tadqiqotlar uchun yechim topishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Ernest Renan: “Millat – jon, ma‘naviy tamoyil. Faqat ikki narsa ushbu jonni, ma‘naviy tamoyilni tashkil qiladi. Biri – o‘tmish, ikkinchisi – bugungi kun. Biri

– umumiy meros haqidagi xotiralar, ikkinchisi – bugungi kundagi birga yashashga intilish”[19], degan fikrni ilgari surib o‘tgan. Zero, bugungi zamon shiddati milliy davlat suvereniteti va millatni turli ta’sirlardan asrashda teran fikrlashni taqozo etadi. Bu borada, eng avvalo, milliy g‘oyani hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, innovatsion yondashuv asosida muayyan g‘oyaga inson manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, yangicha ruh va mohiyat baxsh etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, millatning shakllanishi va rivojida “siyosiy borliq” va “millat – siyosat – davlat” kategoriyalari muayyan hududda etnosning millat darajasida shakllanishi hamda e’tirof etilishi, jamiyatda uning siyosiy jihatdan ekzistensial mohiyati o‘zlashtirilishi “etnos – millat – xalq – Vatan” tamoyili jamiyatning yaxlit siyosiy butunligini ta’minlashdagi funksiyasiga ko‘ra, takomillashtirilishi milliy siyosatning aktori ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Конрад Н.И. Запад и Восток. – М.: Наука, 1972. – С. 17.
2. Бромлей Ю. Этносоциальные процессы: теория, история, современность. – М: Наука, 1987. – с.333; Винер Б. Е.Этничность: в поисках парадигмы изучения//Этнографическое обозрение.1998.-№4.-с 20-32. Shaw M.Graur Dinamics.- New York, 1995.r.13-15.
3. Тишков В. Этничность, национализм и государство в посткоммунистическом обществе//Вопросы социологии. Москва: 1993.№1.- С.4.
4. Барт Р. Избранные работы: семиотика. Поэтика. -Москва.: Мысль,1989.- С.28-42.; Jackson R.Ethicity.In Social science concerts: A systematic analysis,Ed.byg.Sartory.Beverly Hills.-London,1984.-r.24-26.
5. Широкогоров С. Этнос. Исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений // Известия восточного факультета Дальневосточного университета. Т.1. – Шанхай, 1923. – С. 13.
6. Бромлей Ю. Очерки теории этноса. - М.: Наука, 1983.– С. 34.
7. Asqarov A. O‘zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba’zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari//Ozbekiston tarixi 2002. №4. 54–60-betlar
8. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.– Т., 2001. – 86 б.
9. Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 1-қисм: Тошкент., 2005.
10. Гумелев Л.Этносфера: История людей и история природы. – М.: 1993. – С. 540.
11. Man in society. A biosocial resrective. N.Y., 1975. – P. 65.
12. Рыбаков С. Философия этноса. – М.:, 2001. – С. 5
13. Маманазаров Н. Мустақиллик ва миллий-этниқ жараёнлар. – Тошкент: ТМИ, 2004. – Б.7.

14. Сорокин П. Человек, цивилизация, общество. – М.: 1992. – С. 248.
15. Тишков В. Пост Советское пространство: этночеловеческие проблемы («круглый стол»). Социологические исследования. №1, 1997. – С.52.
16. Ислом энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти”, 2004. – Б.160.

